

GrCF3 W2 - Nukus Elektrobust Loyihasi

Mamlakat:	O'ZBEKISTON
Loyiha raqami:	55627
Biznes Sektor:	Tranzit va yer usti yo'lovchi tashish
Bildirgi turi:	Davlat
Ekologik kategoriya:	B
Taxminiy Ma'qullanish Sanasi:	05 Noyabr 2025
Xozirgi holat:	O'rganilmoqda
Loyihasining Ingliz tilidagi Xulosa Hujjati (PSD) ochilish sanasi:	22 Avgust 2025

Loyihaning tavsifi

Nukus shahri uchun elektrobustlar, ularning quvvatlovchi jihozlarini sotib olish va elektrobust parki infratuzilmasini qurish (keyingi o'rinlarda "Loyiha" deb yuritiladi) uchun O'zbekiston Respublikasiga 50 million AQSH dollarigacha miqdorda suveren kredit ajratish. Mazkur Loyiha "YTTB Yashil shaharlari" dasturi doirasida Nukus shahrining ham ishtirok etishini rasman boshlagan holda, boshlang'ich investitsiya bo'lib xizmat qiladi. Bu Loyiha doirasida "Yashil shahar harakatlar rejasi"ni ("GCAP") ishlab chiqish shaharning o'z zimmasiga yuklatiladi

Loyiha maqsadi

Ushbu Loyiha jamoat transporti xizmatlarini yaxshilash uchun Nukus shahrida elektron avtobuslarning dastlabki ishga tushirilishi va jamoat elektr transporti harakatchanligini ("e-harakatchanlik") kengaytirishni qo'llab-quvvatlaydi. Elektr transporti harakatchanligini joriy qilish atmosferaga dimlangan gazlar, ifloslantiruvchi moddalarning chiqindilari va shovqin sababli yuzaga keladigan

nojo'ya ta'sirlarni sezilarli darajada kamaytiradi. Shuningdek, u xususiy transportdan xavfsizroq va ishonchli jamoat elektr transportiga o'tishni rag'batlantiradi.

O'tish davri ta'siri

Kutilayotgan o'tish davri ta'sirining bahosi: 75

Loyiha dimlangan gaz chiqindilarini kamaytirish orqali "Yashil sifat"ni qo'llab-quvvatlaydi. Shuningdek, yangi elektrobust operatori va transport boshqarmasi uchun institutsional rivojlanish hamda salohiyatni oshirish orqali Boshqaruv sifatini mustahkamlaydi.

Mijoz haqida

O'ZBEKISTON SUVEREN

YTTBdan ajratiluvchi moliyaviy mablag'lar

50,000,000.00 AQSH dollari

Loyihaning umumiy qiymati

57,500,000.00 AQSH dollari

Qo'shimchalilik sharti

YTTB loyiha tuzilishini ta'minlash uchun bozordagi o'rtacha ko'rsatkichlardan yuqori bo'lgan muddat va/yoki imtiyozli davrni taklif qiladi. YTTB investitsiyasi moliyaviy yetishmovchilikni bartaraf etish uchun zarur. Shu bilan birga, YTTB boshqa manbalarni, jumladan xalqaro moliyaviy institutlar, hukumat yoki tijorat banklarini siqib chiqarmaydi, balki ularni to'ldiradi.

Bank mijozga asosiy yo'nalishlarda yuqori standartlarga erishishda yordam beradi, masalan: xarid qilish, barqarorlik, inklyuzivlik va gender tengligi. Ushbu qo'llab-quvvatlash YTTBning Xarid siyosati va qoidalari, Ekologik va Ijtimoiy Harakatlar Rejasining amalga oshirilishi hamda GCAP ishlab chiqilishi orqali ta'minlanadi.

YeTTB loyiha maqsadlariga o'z vaqtida erishish uchun zarur bo'lgan tajriba, innovatsiya, bilim va salohiyatni taqdim etadi, jumladan mijozning institutsional salohiyatini mustahkamlashda yordam beradi.

Ekologik va Ijtimoiy Xulosa

Loyiha B toifasiga (ESP 2019) kiritilgan. Loyihaga oid potensial ekologik va ijtimoiy ta'sirlar hududga xos bo'lib, ularni mos ravishda yumshatish choralari qo'llash orqali bartaraf etish rejalashtiriladi.

Loyiha bo'yicha Ekologik va ijtimoiy ekspertiza (ESDD) davom etmoqda. Mustaqil uchinchi tomon auditi mijozning boshqaruv salohiyati hamda atrof-muhit, sog'liq, xavfsizlik va mehnat masalalarini boshqarish tizimini baholaydi, shuningdek loyihaning potensial (kelajakdagi) ijobiy va salbiy ta'sirlarini tahlil qiladi. ESDD shuningdek, mijozning Bankning Talablariga muvofiq loyihani amalga oshirish imkoniyatlarini ham baholaydi.

Loyiha uchun Ekologik va Ijtimoiy Harakatlar Rejasi (ESAP) ishlab chiqiladi. Shuningdek, Manfaatdor tomonlarni jalb qilish rejasi (SEP) tayyorlanadi. Unda shikoyat mexanizmi, ekologik va ijtimoiy faoliyat bo'yicha axborot hamda kelishilgan ESAPning qisqacha mazmuni aks ettiriladi. SEP manfaatdor tomonlarga e'lon qilinadi.

Loyiha Parij kelishuvi maqsadlari bilan muvofiqligi bo'yicha baholangan, chunki u ko'p tomonlama rivojlanish banklari tomonidan tasdiqlangan "shahar elektr transporti" toifasiga kiritilgan. YTTB tomonidan moliyalashtirishning 100% yashil moliya sifatida tasniflanishi kutilmoqda, chunki u iqlimni yumshatish maqsadlariga erishadigan faoliyatni qo'llab-quvvatlaydi. Bu tasnif YTTB investitsiyalarida yashil moliyani aniqlash metodologiyasiga muvofiq amalga oshiriladi.

Ushbu PSD ekologik va ijtimoiy ekspertiza natijalari ma'lum bo'lgach yangilanadi.

Texnik hamkorlik va grant moliyalashtirish

1-texnik hamkorlik: Texnik-iqtisodiy asoslash, shu jumladan texnik, moliyaviy, iqtisodiy, bozor, institutsional, me'yoriy, ekologik va ijtimoiy (shu jumladan gender) ekspertizalari, shuningdek loyiha tarkibiy qismlari bo'yicha texnik tavsiflarni tayyorlash va xaridlarni texnik qo'llab-quvvatlash.

2-texnik hamkorlik: Yangi elektron avtobus va transport boshqarmasi operatorining korporativ malakalari va salohiyatini oshirish.

3-texnik hamkorlik: Yashil kun tartibini qo'llab-quvvatlash uchun investitsiyalarning ustuvor jihatlari, salohiyatni oshirish va siyosat maqsadlarini belgilash uchun Nukus shahriga mo'ljallangan "Yashil shahar harakatlar rejasi"ni ("GCAP") ishlab chiqish. GCAP metodologiyasi inklyuzivlik va gender jihatlarni ham hisobga oladi.

Kompaniyaga murojaat qilish uchun ma'lumot

Murodjon Ismanaliev
m.ismanaliev@mintrans.uz
+998 71 202 05 00

O'tish davri nima

O'tish davri ta'sirini baholash bo'yicha YTTB yondashuvi haqidagi qo'shimcha ma'lumotni [mana bu havoladan](#) olishingiz mumkin.

Loyihalarda ishtirok etish uchun imkoniyatlar

Loyihada yoki xaridlarda ishtirok etish uchun mijoz kompaniyaga murojaat qiling.

YTTB bilan (xaridlarga oid bo'lmagan masalalarda) hamkorlik qilish uchun quyidagi telefon yoki elektron pochta orqali bog'laning:

Tel: +44 20 7338 7168

E-manzil: projectenquiries@ebrd.com

Davlat sektoridagi loyihalar uchun [YTTB xaridlari](#) sahifasiga o'ting:

Tel: +44 20 7338 6794

E-manzil: procurement@ebrd.com

Umumiy ma'lumotlar

Aniq so'rovlar [YTTB so'rovlar shakli](#)dan foydalangan holda berilishi mumkin.

Ekologik va ijtimoiy siyosat (ESP)

YTTB o'zining "ekologik jihatdan mas'ul va barqaror rivojlantirish" tashabbusini ilgari surishda [Ekologik va ijtimoiy siyosat](#) va uning tarkibiy qismi bo'lgan loyiha talablari (PR) Bank loyihasini amalda qo'llash tartibini belgilab beradi. ESP va PR tegishli milliy qonunchilik doirasida Bank mijozlarining keng jamoatchilikka axborot berishi va maslahatlashishini ta'minlash, shuningdek manfaatdor tomonlarning xavotirlari va shikoyatlarini, ayniqsa, ekologik va ijtimoiy muammolarni ko'rib chiqish va hal qilishga yordam beradigan mexanizmni yaratishdagi aniq talablarni o'z ichiga oladi. Loyihaning ekologik va ijtimoiy risklarni va ta'sirining mohiyati va ko'lamidan kelib chiqqan holda, zarurat tug'ilganda, YTTB o'z mijozlaridan qo'shimcha ravishda loyihalarning risklarni va ta'sirlari haqida ma'lumotni oshkor qilishni, shuningdek, manfaatdor tomonlar bilan batafsil fikr almashish va muammolar yuzasidan choralar ko'rilishini talab qiladi.

Bu sohada YTTBning tajribasi bo'yicha qo'shimcha ma'lumotlar ESPning quyidagi [sahifasida](#) keltirilgan.

Ish faoliyatidagi halollik va belgilangan me'yorlarga rioya qilish

YTTBning muvofiqlik nazorati boshqarmasi (OCCO) Bankda mas'uliyatli boshqaruvga ko'maklashish bilan birga Bank faoliyatining barcha jabhalarida eng yuqori standartlarda ish olib borilishini va barcha jarayonlar ilg'or xalqaro tajribalarga muvofiq bo'lishini ta'minlaydi. Bankning barcha mijozlari uchun ularning ish faoliyatidagi halolligini tekshirishdan maqsad, Bank loyihalari uchun qabul qilinishi mumkin bo'lmagan huquqiy va nufuzga oid risklarga yo'l qo'yilmaslikdan iborat. Bank nuqtai nazariga ko'ra, loyihani dastlabki baholash va tasdiqlash bosqichida muammoli jihatlarni aniqlash va ularni bartaraf qilish Bank faoliyati nufuziga putur yetkazmaslikning eng samarali vositasidir. OCCO ushbu profilaktika chora-tadbirlarida muhim ahamiyatga egaligi bilan

birga investitsiya qilinganidan keyingi davrda Bankning nufuziga xavf soladigan risklarni nazorat qilishga yordam beradi.

OCCO, shuningdek, YTTB tomonidan moliyalashtirilayotgan loyihalar doirasidagi firibgarlik, korrupsiya va lavozimni suiiste'mol qilish bo'yicha ma'lumotni tekshiruvchi mas'ul hisoblanadi. Agar kimningdir Bank ichida yoki undan tashqarida firibgarlik yoki korrupsiya holatlari kuzatilayotganligi haqida gumoni bo'lsa, u muvofiqlik nazorati boshqarmasi boshlig'iga bu holat haqida yozma tarzda compliance@ebrd.com elektron manzili orqali xabar qilishi lozim. Barcha bildirilgan daliliy ma'lumotlar tegishli choralar ko'rish uchun OCCO tomonidan ko'rib chiqiladi. Barcha xabarlar, shu jumladan anonym tarzidagi xabarlar ham tekshirib chiqiladi. Bu turdagi xabarlar istalgan tilda, jumladan Bank faoliyat ko'rsatayotgan mamlakatdagi rasmiy tilda tayyorlanishi mumkin. Bunday ma'lumotlar yaxshi niyatni ko'zlashi maqsadga muvofiqdir.

Axborotdan erkin foydalanish siyosati (AIP)

2020-yilning 1-yanvarida kuchga kirgan IAP YTTBning strategiyalari, siyosatlari va amaliyotlarini yaxshiroq tushunish va bilishga ko'maklashish uchun manfaatdor tomonlarga ma'lumotlarni ochiqlash bilan birga maslahatlashuvlar tartibini belgilab beradi. YTTB veb-saytidan qanday ma'lumotlar olish mumkinligini bilish uchun [Axborotdan foydalanish siyosati](#) sahifasiga o'ting.

Muayyan savollaringizni [YTTBning ma'lumot so'rovi](#) orqali yuborishingiz mumkin.

Loyihalar bilan bog'liq shikoyatlarni ko'rib chiqish mexanizmi (IPAM)

Agar jismoniy yoki yuridik shaxslarning ekologik-ijtimoiy sohadagi yoki axborotni oshkor qilish borasidagi xavotirlarini (masalan, loyiha darajasida mijozlar tomonidan yaratilgan shikoyatlar mexanizmi yoki Bankning amaliyot boshqaruvi bilan bevosita o'zaro aloqa qilish orqali) qanoatlantirishga bo'lgan urinishlari samarasiz bo'lsa, ular YTTBning hisobdorlik mexanizmi ya'ni loyihalar bilan bog'liq shikoyatlarni ko'rib chiqish mexanizmi yordamida (IPAM) o'zlarining o'sha xavotirlarini bildirishlari mumkin.

Loyihalar bilan bog'liq shikoyatlarni ko'rib chiqish mexanizmi (IPAM), arizachilarning fikriga ko'ra, zarar yetkazishga ulgurgan yoki kelajakda zarar yetkazishi mumkin bo'lgan loyihaning muammolarini mustaqil ravishda baholaydi. Ushbu mexanizmning vazifalari quyidagilardan iborat: - ekologik-ijtimoiy va axborotni oshkor etish bo'yicha muammolarni hal qilish uchun loyiha ishtirokchilari o'rtasidagi o'zaro aloqalarni o'rnatish va muloqotlarni olib borish; - Bank tomonidan ishlab chiqilgan [Ekologik va ijtimoiy siyosat](#) talablariga, shuningdek loyihaga oid tegishli [Axborotdan erkin foydalanish siyosati](#) qoidalariga rioya qilinishini baholash; - zarurat tug'ilganda, ushbu mezonlarga rioya qilmaslik holatlarini bartaraf etish, kelgusida Bank tomonidan ularni buzish holatlariga nisbatan ko'riladigan choralarini ko'zda tutish.

IPAM va uning vakolatlari haqida batafsil ma'lumot olish, ko'rib chiqilishi kerak bo'ladigan [shikoyatlarni jo'natish](#) uchun [Loyihalar bilan bog'liq shikoyatlarni ko'rib chiqish mexanizmi veb saytiga](#) kirishingiz yoki tavsiyalar olish hamda IPAM haqida qo'shimcha ma'lumot olish va shikoyat jo'natish uchun ipam@ebrd.com elektron pochta orqali biz bilan bog'lanishingiz mumkin.